

QO'QON UNIVERSITETI
JAHON TILLARI KAFEDRASI
MEHNAT BOZORI VA TA'LIM EHTIYOJLARI HAMDA
ILMIY-TADQIQOTNING SO'NGGI TENDENSIYALARI BO'YICHA
OCHIQ AXBOROT E'LONLARI TO'PLAMI

2025–2026 o'quv yili

Ushbu to'plam Qo'qon universiteti Jahon tillari kafedrasidan 2025–2026 o'quv yilida ta'lim dasturlari, kafedra ish rejasi va hisoboti, Action Plan monitoringi, bitiruvchilar bandligi, amaliyot bazalari hamda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik jarayonida yig'ilgan mehnat bozori talablari, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqot tendensiyalarini ochiq e'lon shaklida taqdim etish maqsadida tayyorlandi. To'plam 60110900 – Xorijiy til va adabiyoti, 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda 70230101 – Lingvistika magistratura mutaxassisligini qamrab oladi.

E'lonlar uch yo'nalish bo'yicha guruhlangan: (1) mehnat bozori va kasbiy talab, (2) ta'lim ehtiyojlari, (3) ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalari. Xalqaro metodik asos sifatida CEFR Companion Volume, UNESCOning sun'iy intellekt kompetensiyalari va generativ AI bo'yicha tavsiyalari hamda DigCompEdu raqamli kompetensiyalar yondashuvi inobatga olindi.

I. BO'LIM: MEHNAT BOZORI VA KASBIY TALAB BO'YICHA E'LONLAR

E'LON № 1 60110900 – XORIJIY TIL VA ADABIYOTI (INGLIZ TILI) BITIRUVCHILARIGA TALABLAR		
MA'LUMOT TURI	MAZMUN	MANBA / TASDIQ
Asosiy kasbiy faoliyatlar	Ingliz tili va adabiyoti o'qituvchisi, CEFR/IELTS instruktori, metodist, o'quv kontenti va baholash materiallari ishlab chiquvchi, tarjima hamda xalqaro loyihalarda til mutaxassisi.	60110900 malaka talabi; kafedra va Karyera markazi monitoringi, 2025–2026
Til va kommunikativ kompetensiya	Ingliz tilining to'rt ko'nikmasini integrallashgan holda egallash; kasbiy-pedagogik faoliyatda B2–C1 darajasiga yo'naltirilgan tayyorgarlik; mediatsiya, onlayn muloqot va madaniyatlararo kommunikatsiya.	CEFR Companion Volume; fan/modul dasturlari; 9.1 moslik jadvali
Pedagogik-metodik ko'nikmalar	Darsni rejalashtirish, kommunikativ va vazifaga asoslangan ta'lim, sinfni boshqarish, differensial yondashuv, o'quv natijalarini baholash va qayta aloqa berish.	Ingliz tilini o'qitish metodikasi va xalqaro baholash fanlari; amaliyot monitoringi

Raqamli va AI kompetensiyalar	HEMIS/LMS, multimedia, raqamli baholash, elektron portfoliolar, mas'uliyatli AI vositalari va tinglash laboratoriyasidan maqsadli foydalanish.	Kafedra Action Plan; 'Tinglash ko'nikmalarini oshirish' laboratoriyasi; UNESCO AI va DigCompEdu
Yumshoq ko'nikmalar	Aniq muloqot, jamoada ishlash, taqdimot, moslashuvchanlik, vaqtni boshqarish, akademik halollik va kasbiy etika.	Ish beruvchilar bilan muloqot va bitiruvchilar monitoringida qayd etilgan umumiy talablar
Mehnat bozori segmentlari	Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar, akademik litseylar, nodavlat ta'lim va til markazlari, imtihonga tayyorlov markazlari, tarjima va xalqaro loyiha tashkilotlari.	Amaliyot bazalari va hamkor tashkilotlar bilan tuzilgan hujjatlar; kafedra yillik hisoboti

E'LON № 2 60230100 – FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: INGLIZ TILI BITIRUVCHILARIGA TALABLAR

MA'LUMOT TURI	MAZMUN	MANBA / TASDIQ
Asosiy kasbiy faoliyatlar	Ingliz tili o'qituvchisi, filolog, metodist, muharrir, tarjimon, ta'lim kontenti yaratuvchisi va til bo'yicha maslahat beruvchi mutaxassis.	60230100 malaka talabi; kafedraning 2025–2026 fanlar taqsimoti
Og'zaki va yozma nutq	Og'zaki nutq, o'qish va yozish ko'nikmalarini kasbiy vaziyatlarda qo'llash; fikrni grammatik, fonetik va uslubiy jihatdan me'yoriy ifodalash.	Og'zaki nutq amaliyoti I–II; O'qish va yozish amaliyoti I–II; Amaliy grammatika va fonetika
Filologik tahlil	Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matn va diskursni tahlil qilish, til birliklarini tizimli sharhlash va madaniy kontekstni izohlash.	Tilshunoslik va Adabiyotshunoslik fanlari; 60230100 malaka talabi
Pedagogik va baholash kompetensiyasi	O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, o'quv materiallarini moslashtirish, amaliy topshiriqlar ishlab chiqish va talabalar bilimni mezon asosida baholash.	Malaka talabi; kafedra ochiq dars va o'zaro dars monitoringi
Raqamli kontent va tahrir	Elektron o'quv materiallari, taqdimotlar, audio-video kontent, raqamli matn tahriri va akademik halollik talablari bilan ishlash.	Kafedra ish rejasi; elektron ta'lim platformalari; DigCompEdu
Mehnat bozori segmentlari	Maktab va litseylar, til markazlari, nashriyot va tahririyatlar, tarjima xizmatlari, ta'lim loyihalari hamda raqamli kontent ishlab chiqaruvchi tashkilotlar.	Kasbiy faoliyat turlari; amaliyot va ish beruvchilar bilan hamkorlik hujjatlari

E'LON № 3 70230101 – LINGVISTIKA MAGISTRATURASI BITIRUVCHILARIGA TALABLAR		
MA'LUMOT TURI	MAZMUN	MANBA / TASDIQ
Rasmiy kvalifikatsiya va faoliyat	Tilshunos, pedagog-tadqiqotchi (roman-german tillari bo'yicha); OTM o'qituvchisi, ilmiy xodim, lingvist-ekspert, muharrir-tahlilchi va ilmiy loyiha mutaxassisi.	70230101 – Lingvistika malaka talabi
Ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi	Muammoni asoslash, adabiyotlar sharhi, tadqiqot dizayni, sifat va miqdoriy ma'lumot to'plash, tahlil qilish, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi; magistrlik dissertatsiyasi; ilmiy- tadqiqot ishi
Ixtisoslashtirilgan lingvistik bilim	Kognitiv lingvistika, matn lingvistikasi, lingvopragmatika, psixolingvistika, zamonaviy lingvistika va ilmiy-kasbiy ingliz tili.	70230101 ishchi o'quv reja va fan/modul dasturlari
Raqamli va ma'lumotlar bilan ishlash	Korpus va elektron manbalar, bibliografik menejerlar, ORCID/Google Scholar, tadqiqot ma'lumotlarini boshqarish, zarur hollarda Praat, SPSS/R va AI vositalaridan etik foydalanish.	Kafedra ilmiy seminarlar rejasi; Action Plan; UNESCO AI tavsiyalari
Akademik nashr va taqdimot	Ilmiy maqola, konferensiya tezisi, magistrlik dissertatsiyasi va ilmiy taqdimotni akademik uslub va nashr talablari asosida tayyorlash.	Ilmiy ish yozish va taqdimot mahorati; Scopus/WoS nashrlarini oshirish bo'yicha Action Plan
Mehnat bozori segmentlari	Oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar, ta'lim sifatini ta'minlash bo'linmalari, nashriyotlar, tarjima va til texnologiyalari loyihalari.	Malaka talabi; kafedra va bitiruvchilar monitoringi

II. BO'LIM: TA'LIM EHTIYOJLARI BO'YICHA E'LONLAR

E'LON № 4 O'QUV DASTURIDAGI DOLZARB EHTIYOJLAR — XORIJIY TIL VA ADABIYOTI		
ANIQLANGAN EHTIYOJ	JORIY HOLAT	TAKOMILLASHTIRISH CHORASI

Boshlang'ich til darajasini diagnostika qilish	Talabalar A2–B2 oralig'idagi turli tayyorgarlik darajasi bilan qabul qilinadi; individual rivojlanish trayektoriyasini tizimli rasmiylashtirish ehtiyoji mavjud.	Kirish diagnostikasi, daraja guruhlari, bridge-course va har semestr CEFR progress monitoringini joriy etish.
CEFR/IELTS sertifikatiga yo'naltirish	Fanlar to'rt ko'nikmani rivojlantiradi, Speaking/Debate Club faoliyati mavjud; sertifikat olish yo'li barcha kurslarda yagona tizimga keltirilishi lozim.	Mock CEFR/IELTS, individual sertifikat xaritasi, konsultatsiya va yuqori natijali talabalar uchun maqsadli guruhlar.
Mediatsiya va onlayn muloqot	Integrated Skills, Nutq ko'nikmalari integratsiyasi, O'qish va yozuv fanlari mavjud.	CEFR Companion Volume asosida mediatsiya, onlayn interaksiya va plurilingual topshiriqlarni rubrikalarga kiritish.
Baholash savodxonligi	Xalqaro baholash standartlari va nazorat materiallari mavjud, biroq amaliy item-writing va yagona mezonlar bankini kengaytirish zarur.	Formativ/summativ baholash, rubrika, test topshirig'i ekspertizasi va elektron savollar bankini shakllantirish.
Raqamli va AI asosidagi ta'lim	LMS/HEMIS, elektron resurslar va 'Tinglash ko'nikmalarini oshirish' laboratoriyasi yo'lga qo'yilgan.	AI savodxonligi, akademik halollik, e-portfolio, laboratoriya mashg'ulotlari va DigCompEdu asosida o'qituvchilar treningi.
Amaliyot va ish beruvchi fikri	Amaliyot bazalari bilan shartnomalar va monitoring mavjud.	Maktab/markazlarda dars kuzatuv, microteaching, guest lesson va amaliyot yakunida ish beruvchi baholash varaqasini majburiy qilish.

E'LON № 5 O'QUV DASTURIDAGI DOLZARB EHTIYOJLAR — FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: INGLIZ TILI

ANIQLANGAN EHTIYOJ	JORIY HOLAT	TAKOMILLASHTIRISH CHORASI
Og'zaki va yozma kompetensiyaning bosqichma-bosqich o'sishi	Og'zaki nutq amaliyoti I–II va O'qish-yozish amaliyoti I–II o'qitiladi.	Har semestr CEFR deskriptorlari, portfolio va integrallashgan yakuniy topshiriqlar orqali progressni hujjatlashtirish.
Amaliy grammatika va fonetika	Amaliy grammatika va fonetika fani mavjud; talaffuz bo'yicha individual diagnostikani kengaytirish zarur.	Audio tahlil, minimal juftliklar, nutq yozuvlari va laboratoriya asosidagi pronunciation portfolio joriy etish.
Tilshunoslik va adabiyotshunoslik integratsiyasi	Tilshunoslik va Adabiyotshunoslik fanlari alohida o'qitiladi.	Matn, diskurs va adabiy asarlarni lingvistik-madaniy tahlil qiluvchi loyiha topshiriqlarini ko'paytirish.

Pedagogik-metodik tayyorgarlik	Yo'nalishning kasbiy natijalari o'qituvchilik faoliyatini ham qamrab oladi.	Lesson planning, classroom observation, baholash savodxonligi va microteaching komponentlarini kurslar bo'yicha tizimlashtirish.
Tarjima, tahrir va raqamli kontent	Malaka talabida tarjima va muharrirlik faoliyati ko'zda tutiladi; joriy fanlarda amaliy digital-content topshiriqlari cheklangan.	Tarjima texnologiyalari, matn tahriri, subtitrl, lokalizatsiya va akademik halollik bo'yicha workshoplar tashkil etish.
Mini-tadqiqot va akademik yozuv	Nazariy fanlar mavjud, biroq ilk kurslardan kichik tadqiqot olib borish tizimini kuchaytirish zarur.	2-kursdan mini-research, adabiyotlar sharhi, referat va konferensiya posterlarini bosqichma-bosqich joriy etish.

E'LON № 6 O'QUV DASTURIDAGI DOLZARB EHTIYOJLAR — LINGVISTIKA MAGISTRATURASI

ANIQLANGAN EHTIYOJ	JORIY HOLAT	TAKOMILLASHTIRISH CHORASI
Ilmiy metodologiya va akademik yozuvni uyg'unlashtirish	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi hamda Ilmiy ish yozish va taqdimot mahorati fanlari mavjud.	Yagona Research Skills portfoliysi: muammo, sharh, metod, ma'lumot, natija, maqola va taqdimot bosqichlarini birlashtirish.
Tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilish	Sifat va miqdoriy metodlar yoritiladi, amaliy dasturlar bo'yicha ehtiyoj mavzuga qarab farqlanadi.	Korpus vositalari, Praat, SPSS/R asoslari, transkripsiya va ma'lumotlarni xavfsiz boshqarish bo'yicha amaliy seminarlar.
Korpus va kompyuter lingvistikasi	Zamonaviy lingvistika va boshqa nazariy fanlar mavjud; raqamli korpus bilan ishlash alohida kuchaytirilishi mumkin.	Korpus tuzish, concordance, chastota va kollokatsiya tahlili bo'yicha tanlov workshop/modulini joriy etish.
Xalqaro nashr savodxonligi	Ilmiy maqola va tezislar tayyorlash rejalashtirilgan; Scopus/WoS natijalarini oshirish Action Planda belgilangan.	Jurnal tanlash, IMRaD, akademik ingliz tili, peer review, bibliometriya, ORCID va antiplagiat bo'yicha nashr klinikasi.
Ilmiy-pedagogik ish	Ilmiy-pedagogik ish o'quv rejaning alohida bloki sifatida mavjud.	Dars kuzatuv, microteaching, metodik tahlil va elektron pedagogik portfolio bilan baholash.
Xalqaro qo'shma tadqiqot va mobillik	Orhun va xorijiy professorlar ishtirokidagi tadbirlar yo'lga qo'yilgan.	Atyrau, Abay va O'sh universitetlari bilan qo'shma seminar, ilmiy rahbarlik, ma'lumot almashish va hammualliflik loyihalari.

E'LON № 7 ISH BERUVCHILAR VA HAMKOR TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIK EHTIYOJLARI		
HAMKORLIK YO'NALISHI	TAKLIF / EHTIYOJ	ALOQA UCHUN
Amaliyot bazalari	Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar, akademik litseylar, til markazlari va nodavlat ta'lim tashkilotlari talabalar uchun dars kuzatuv, microteaching va malaka amaliyoti o'rinlarini taklif etishga chaqiriladi.	Jahon tillari kafedrası; Amaliyot bo'yicha mas'ul; Karyera markazi
Kasbiy talab bo'yicha so'rovnoma	Ish beruvchilar va ta'lim tashkilotlari til darajasi, metodika, baholash, raqamli ko'nikma va ishga tayyorgarlik bo'yicha yillik so'rovnomada ishtirok etishi so'raladi.	Kafedra mudiri A.A. Aminjonov; elektron so'rovnoma
Guest Lecturer / master-klass	Maktab rahbarlari, tajribali o'qituvchilar, IELTS/CEFR ekspertlari, tarjimonlar va tadqiqotchilar kafedrada ma'ruza, amaliy seminar yoki master-klass o'tkazishga taklif etiladi.	Kafedra; Akademik ishlar departamenti
Sertifikatlash va diagnostika	Hamkor o'quv markazlari va test mutaxassislaridan talabalar uchun mock CEFR/IELTS, speaking assessment va sertifikatga tayyorlov tadbirlarini hamkorlikda o'tkazish taklif etiladi.	Jahon tillari kafedrası; hamkor test markazlari
Bitiruvchilar bandligi va alumni	Bitiruvchilar ish joyi, kasbiy rivojlanishi va o'quv dasturi bo'yicha fikrlarini muntazam taqdim etishi; bo'sh ish o'rinlari va mentorlik imkoniyatlarini ulashishi so'raladi.	Karyera markazi; kafedra alumni koordinatori
Amaliy tadqiqot va BMI/magistrlik mavzulari	Maktablar, markazlar va tashkilotlar real til ta'limi muammolari, baholash, tarjima va kommunikatsiya bo'yicha amaliy tadqiqot mavzularini taklif qilishi mumkin.	Kafedra ilmiy seminar koordinatori; magistratura rahbarlari

III. BO'LIM: ILMIY-TADQIQOTNING SO'NGGI TENDENSIYALARI BO'YICHA E'LONLAR

E'LON № 8 XORIJIY TIL TA'LIMI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TENDENSIYALARI (2025–2026)

TENDENSIYA	MAZMUN VA AHAMIYATI	O'QUV DASTURGA TA'SIRI
Harakatga yo'naltirilgan CEFR, mediatsiya va plurilingvallik	CEFR Companion Volume til o'rganuvchini ijtimoiy agent sifatida ko'radi; mediatsiya, onlayn muloqot hamda plurilingual/pluricultural kompetensiyalarni alohida yoritadi.	Fan natijalari, topshiriqlar va baholash rubrikalariga mediatsiya, onlayn interaksiya va ikkinchi xorijiy til komponentlarini kiritish.
AI yordamida til o'rganish va baholash	UNESCO AI kompetensiyalari va generativ AI bo'yicha tavsiyalar AI vositalaridan inson markazli, etik, xavfsiz va tanqidiy foydalanishni talab qiladi.	AI savodxonligi, manbani tekshirish, prompt etikasi, akademik halollik va o'qituvchi nazoratidagi AI-feedback topshiriqlarini kiritish.
Raqamli va aralash ta'lim	DigCompEdu pedagoglarning raqamli resurs, ta'lim, baholash, o'quvchini qo'llab-quvvatlash va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishini tizimlashtiradi.	LMS, e-portfolio, audio-video topshiriqlar, raqamli formative assessment va blended lesson designni kengaytirish.
Vazifaga va loyihaga asoslangan ta'lim	Haqiqiy kommunikativ vazifa, loyiha, case va kasbiy vaziyat talabning tilni amalda qo'llashi hamda hamkorlikda muammo hal qilishini rivojlantiradi.	Fanlararo mini-loyihalar, microteaching, professional presentation va amaliy portfolio ulushini oshirish.
Baholash savodxonligi va learning analytics	Diagnostik, formativ va summativ baholashni uyg'unlashtirish, natijalarni ma'lumot asosida tahlil qilish va shaffof qayta aloqa berish dolzarb.	Yagona rubrikalar, test spetsifikatsiyasi, savollar banki va semestrlik progress tahlilini yo'lga qo'yish.

E'LON № 9 AMALIY LINGVISTIKA VA FILOLOGIYADAGI TADQIQOT TENDENSIYALARI (2025–2026)

TENDENSIYA	MAZMUN VA AHAMIYATI	O'QUV DASTURGA TA'SIRI
Korpus lingvistikasi va data-driven learning	Katta matn korpuslari til birliklari, kollokatsiya, janr va diskurs xususiyatlarini empirik tahlil qilish imkonini beradi.	Tilshunoslik, leksikologiya, diskurs tahlil va magistrlik tadqiqotlariga korpus topshiriqlari va ochiq ma'lumotlar bilan ishlashni kiritish.
L2 fonetika, talaffuz va nutq texnologiyalari	Akustik tahlil, tinglab farqlash, talaffuz diagnostikasi va speech-technology vositalari til o'rganuvchilarining real nutq muammolarini aniqlashga xizmat qiladi.	Amaliy fonetika, tinglash-so'zlashish va tadqiqot metodologiyasida audio korpus, Praat va pronunciation portfolio bilan ishlash.

Diskurs, pragmatika va madaniyatlararo muloqot	Shikoyat, rad etish, iltimos, muloyimlik, identitet va kasbiy diskurs kabi hodisalarni kontekstda o'rganish kommunikativ kompetensiyani chuqurlashtiradi.	Diskurs tahlil, lingvopragmatika, sotsiolingvistika va tarjima topshiriqlarida autentik matn va suhbat ma'lumotlaridan foydalanish.
Ko'p tillilik va translanguaging	Til repertuaridan moslashuvchan foydalanish, ikkinchi xorijiy til va madaniyatlararo mediatsiya zamonaviy til ta'limining muhim yo'nalishidir.	Ikkinchi xorijiy til, Integrated Skills va metodika fanlarida plurilingual strategiyalarni sinovdan o'tkazish.
Raqamli gumanitar fanlar va tanqidiy matn tahlili	Elektron matnlar, raqamli arxiv, multimodal diskurs va media savodxonligi adabiyot hamda filologik tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi.	Adabiyotshunoslik, matn lingvistikasi va akademik yozuvda raqamli arxiv, annotatsiya va multimodal loyiha topshiriqlarini joriy etish.

E'LON № 10 ILMIY METODOLOGIYA VA AKADEMIK NASHR TENDENSIYALARI (2025–2026)		
TENDENSIYA	MAZMUN VA AHAMIYATI	O'QUV DASTURGA TA'SIRI
Ochiq fan, tadqiqot etikasi va ma'lumotlarni boshqarish	Rozilik, maxfiylik, ishonchli ma'lumot, saqlash va qayta foydalanish qoidalarini tadqiqot boshidan rejalashtirish zarur.	Metodologiya va dissertatsiya seminarlarida etik protokol, data-management plan va anonimlashtirish topshiriqlari.
Akademik yozuv va publication literacy	Maqola janri, IMRaD, argument, manba bilan ishlash, peer review va jurnal talablari ilmiy natijani xalqaro auditoriyaga yetkazishning asosi.	Academic Writing/Research Skills, maqola klinikasi, jurnal tanlash va reviewer response mashg'ulotlarini rivojlantirish.
Aralash metodlar va triangulyatsiya	Sifat va miqdoriy ma'lumotlarni uyg'unlashtirish murakkab til va ta'lim hodisalarini ishonchliroq tushuntirish imkonini beradi.	So'rovnoma, intervyu, eksperiment, korpus va sinf kuzatuv metodlarini bir tadqiqot dizaynida bog'lash.
Bibliometriya va tadqiqot ko'rinishchanligi	ORCID, Google Scholar, aniq affiliatsiya, kalit so'z va iqtiboslarni boshqarish ilmiy natijalarning topilishi va monitoringini yaxshilaydi.	Professor-o'qituvchi va magistrantlar uchun profil auditi, bibliografik menejer va research visibility seminarlarini o'tkazish.
Xalqaro hammualliflik va akademik mobillik	Qo'shma seminar, ma'lumot almashish, visiting lecture va hammualliflik tadqiqotning metodik sifati va ta'sirini kuchaytiradi.	Atyrau, Abay, O'sh universitetlari va Orhun doirasida qo'shma tadqiqot rejalari hamda ochiq seminarlar tashkil etish.

E'LON № 11 KAFEDRANING ILMIY-TADQIQOT YO'NALISHLARI VA OCHIQ NATIJALAR (2025–2026)

TADQIQOT YO'NALISHI	KAFEDRADAGI TAYANCH FAN / YONDASHUV	MANFAATDOR TOMONLAR UCHUN OCHIQ NATIJA	HOLATI / KANALI
Xorijiy tilni o'qitish metodikasi va baholash	Ingliz tilini o'qitish metodikasi; xalqaro baholash standartlari; amaliyot	Ochiq dars tahlillari, metodik tavsiyalar, test va rubrika namunalari	Kafedra seminari, LMS va ochiq darslar
Akademik yozuv va diskurs	Akademik yozish; Diskurs tahlil; Ilmiy ish yozish va taqdimot	Yozuv qo'llanmalari, seminar materiallari, talabalar va magistrantlar tadqiqotlari	Rivojlantirilmoqda; Research Skills yo'nalishi
L2 fonetika va talaffuz	Amaliy grammatika va fonetika; Tinglash va so'zlashish ko'nikmalari	Audio materiallar, talaffuz diagnostikasi, akustik tahlil bo'yicha metodik resurslar	Laboratoriya va ilmiy seminarlar
Kognitiv va psixolingvistika	Kognitiv lingvistika; Psixolingvistika	Ilmiy ma'ruza, magistrlik dissertatsiyasi va tadqiqot natijalari	70230101 dasturi doirasida
Pragmatika, matn va sotsiolingvistika	Lingvopragmatika; Matn lingvistikasi; Sotsiolingvistika	Autentik diskurs tahlili, madaniyatlararo muloqot va nutq aklari tadqiqotlari	Ilmiy konferensiya va kafedra to'garaklari
Adabiyot va qiyosiy filologiya	Ingliz adabiyoti; Adabiyotshunoslik; Leksikologiya	Adabiy tahlil, taqdimot, maqola va talabalar ijodiy-tadqiqot loyihalari	Fanlar va ilmiy seminarlar doirasida
Raqamli/AI asosidagi til ta'limi	LMS, Tinglash laboratoriyasi, multimedia, Action Plan	AI etikasi bo'yicha yo'riqnoma, raqamli dars materiallari va tajriba natijalari	Rivojlantirish bosqichida
Tarjima texnologiyalari va madaniyatlararo kommunikatsiya	Ikkinchi xorijiy til; kasbiy ingliz tili; tarjima va tahrir ehtiyojlari	Workshop, tarjima/tahrir namunasi, tashkilotlar muammosi asosidagi amaliy loyiha	Hamkorlik asosida rejalashtirilgan

IV. BO'LIM: UMUMIY XULOSALAR VA MANFAATDOR TOMONLARGA MUROJAAT

E'LON № 12 MONITORING NATIJALARI BO'YICHA UMUMIY XULOSALAR	
№	ASOSIY XULOSA
1	Uchala ta'lim dasturi bo'yicha mehnat bozori til kompetensiyasi bilan bir qatorda pedagogik, filologik, ilmiy-tadqiqot, raqamli va madaniyatlararo kompetensiyalarning uyg'unligini talab qiladi.
2	Talabalar til darajasini kirish diagnostikasi, CEFR progress monitoringi, mock imtihonlar va individual sertifikat trayektoriyasi orqali bosqichma-bosqich oshirish ustuvor ehtiyojdir.
3	Raqamli ta'lim va AI vositalaridan foydalanish texnik ko'nikma bilan cheklanmasdan, akademik halollik, ma'lumot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash va o'qituvchi nazoratini qamrab olishi kerak.
4	Lingvistika magistraturasida akademik yozuv, tadqiqot dizayni, korpus va ma'lumotlar tahlili, ilmiy etika hamda xalqaro nashr savodxonligini amaliy portfolio asosida mustahkamlash zarur.
5	Maktablar, litseylar, til markazlari, bitiruvchilar, Karyera markazi va hamkor universitetlardan olinadigan muntazam fikr o'quv dasturlari hamda Action Plan yangilanishining asosiy manbai bo'lishi lozim.
6	Yig'ilgan ma'lumotlar rasmiy veb-sahifa, LMS/HEMIS, ijtimoiy tarmoqlar, seminarlar va axborot stendi orqali ochiq e'lon qilinib, manfaatdor tomonlarning takliflari hujjatlashtiriladi.

E'LON № 13 MANFAATDOR TOMONLARGA MUROJAAT VA TAKLIFLAR		
MANFAATDOR TOMON	MUROJAAT MAZMUNI	HAMKORLIK SHAKLI
Ish beruvchilar va ta'lim tashkilotlari	Bitiruvchidan kutiladigan til, metodika, baholash, raqamli va kasbiy ko'nikmalarni belgilashda o'z fikringizni bildiring hamda amaliyot va ish o'rinlarini taklif eting.	Yillik so'rovnoma; Kengash muhokamasi; amaliyot shartnomasi; Guest Lecturer
Talabalar	Til darajangizni muntazam diagnostika qiling, sertifikat, to'garak, ilmiy loyiha va amaliyot imkoniyatlaridan foydalaning; o'quv sifati bo'yicha aniq taklif bering.	Konsultatsiya; Speaking/Debate Club; anonim so'rovnoma; Student Voice uchrashuvi
Bitiruvchilar	Ish tajribangiz, zarur ko'nikmalar va dasturdagi kuchli yoki takomillashtirilishi kerak bo'lgan jihatlar haqida fikr bildiring.	Alumni so'rovnomasi; mentorlik; bo'sh ish o'rinlari; kafedra uchrashuvlari

Hamkor universitetlar (Atyrau, Abay, O'sh va boshqalar)	O'quv reja va tadqiqot yo'nalishlarini qiyoslash, qo'shma seminar, professor-o'qituvchi va talaba mobilligi hamda hammualliflik loyihalarini rivojlantirish taklif etiladi.	Akademik mobillik; qo'shma seminar; guest lecture; ilmiy loyiha
Davlat idoralari va professional hamjamiyatlar	Hududiy pedagog kadrlarga ehtiyoj, sertifikat talablari, ta'lim sifati va til xizmatlari bo'yicha ma'lumot almashish taklif etiladi.	Yillik axborot almashish; ekspert uchrashuvi; hududiy ehtiyojlar tahlili
Keng jamoatchilik	Ushbu to'plam manfaatdor tomonlar uchun ochiq manba hisoblanadi. Fikr-mulohaza va takliflar keyingi monitoring, Kengash qarori va Action Planda ko'rib chiqiladi.	Universitet rasmiy veb-sayti; kafedra sahifasi; HEMIS/LMS; Telegram/Instagram; axborot stendi

Jahon tillari kafedrasi mudiri:



A.A. Aminjonov